



"BIZNESGA INVESTITSIYA JALB ETISH STRATEGIYASI"

Andijon shaxar 2-son texnikumi

Maxsus fan o'qituvchisi Mamadjanova Dilnoza

Annotatsiya:

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda investitsiyalarni jalb qilish mamlakatlar va kompaniyalar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun ham muhim omil hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion rivojlanishga erishish mumkin.

Kalit so'zlar: Investitsion strategiya, Kapital jalb qilish, Moliyalashtirish manbalari

Investorlar bilan ishlash, Start-up moliyasi, Venchur kapital, Likvidlik, Riskni boshqarish, Biznes incubator, Akcelerator, IP (intellektual mulk), Roadshow

Biznesga investitsiya jalb etishning maqsadi:

Biznesga investitsiya jalb etishning zamonaviy strategiyalarini o'rganish, tahlil qilish va kasbiy ta'lim muassasalarida ushbu bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha konstruktiv takliflar ishlab chiqish. Korxonaga tashqi moliyaviy resurslarni samarali jalb qilib, uning rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishdir

Biznesga investitsiya jalb etishning ning obyekti:



O'zbekiston iqtisodiyotida faoliyat yurituvchi kichik va o'rta biznes sub'ektlari hamda ularning investitsiya muhiti

Ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarining obyektlari investitsiya faoliyati obyektlaridir.

Barpo etilishi va foydalanilishi qonunchilikda belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlik talablariga va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya qilish taqiqlanadi.

Biznesga investitsiya jalb etishning predmeti:

Biznesga investitsiya jalb etish jarayonida qo'llaniladigan strategiyalar, usullar va mexanizmlar; investorlar bilan munosabatlarni o'rnatishning amaliy yo'llari.

Singapur tajribasi biznesga investitsiya jalb etishda ilg'or namuna hisoblanadi. Bu davlatda qulay investitsiya muhiti yaratilgan bo'lib, soddalashtirilgan soliq tizimi, shaffof qonunchilik va investorlar huquqlarining ishonchli himoyasi ta'minlangan. Shuningdek, davlat tomonidan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgan va tadbirkorlarga turli imtiyozlar berilgan. Elektron hukumat tizimi orqali barcha ruxsatnomalarni tez va oson olish imkoniyati yaratilgani investorlar uchun katta qulaylik tug'diradi. Natijada, Singapur qisqa vaqt ichida dunyodagi eng jozibador investitsiya markazlaridan biriga aylangan.

Xulosa va takliflar

Investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini yanada oshirish mamlakatning yoki korxonaning ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. To'g'ri strategiyalarni qo'llash va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yordamida investitsiya muhitini yaxshilash va investitsiyalarni ko'paytirish mumkin. Buning natijasida



iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari va rivojlanish imkoniyatlari yaratiladi. Shuningdek, davlat siyosatini takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, ma'lumot almashinuvi, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va ijtimoiy hamda ekologik masalalarga e'tibor berish orqali investitsiyalarni jalb qilish jarayoni samarali va barqaror rivojlanishga olib kelishi mumkin.

❑ Investitsiya jalb etish — bu bir martalik harakat emas, balki tizimli, uzluksiz strategik jarayon bo'lib,

u biznesning barcha bo'g'inlarini qamrab olishi kerak.

❑ Muvaffaqiyatli investitsiya jalb etishda shaffoflik, ishonchli moliyaviy hisobot va kuchli boshqaruv tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

❑ Kasbiy ta'lim muassasalarida investitsiya savodxonligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar joriy etish zarur.

❑ Singapur tajribasi ko'rsatadiki, «bir darcha» tizimi va raqamli platforma XTI ni 2 barobarga oshirishi mumkin.

❑ O'zbekistonda 2030 yilga qadar XTI hajmini 12 mlrd dollarga yetkazish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, soliq imtiyozlarini kengaytirish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni «2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida».

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 dekabrda O'RQ-598-son QONUNI «INVESTITSİYALAR VA INVESTITSIYA FAOLIYATI TO'G'RISIDA».



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 yanvardagi
«INVESTITSİYALAR VA INVESTITSIYA FAOLIYATI

3. TO'G'RISIDA» qonuni
4. Jumayev N., Toshmatov Sh. Investitsiyalar iqtisodiyoti. — T.: TDIU, 2021. — 384 b.
5. Blank I.A. Investitsionnyy menedzhment. — K.: Nika-Tsentr, 2001. — 448 s.
6. World Bank. Doing Business 2024. — Washington: World Bank Publications, 2024.
7. OECD. Investment Policy Reviews: Uzbekistan 2023. — Paris: OECD Publishing, 2023.
8. www.stat.uz — O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti.
9. www.Lex.uz -O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti.
- 10, www.mf.uz — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.